

O‘ZBEKISTONDA GEOLOGIYA SOHASI RIVOJIDA HISOR
EKSPEDITSIYASINING O‘RNI VA AHAMIYATI.

Abdusalomov Muslimbek Yusupjon o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti, O‘zbekiston

tarixi kafedrasini o‘qituvchisi.

abdusalomovmuslimbek035@gmail.com

ORCID.org/ 0009-0001-5269-8725

Annotatsiya. Mazkur maqolada Hisor markaziy geologiya-qidiruv ekspeditsiyasining tashkil etilishi tarixi va uning O‘zbekiston geologiya sohasi rivojlanishida tutgan o‘rni ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda ekspeditsiyaning tarixiy shakllanish bosqichlari, asosiy tadqiqot yo‘nalishlari va foydali qazilmalar konlarini aniqlashdagi ilmiy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mustaqillikdan keyingi davrda geologiya sohasida amalga oshirilgan tuzilmaviy islohotlar, ilmiy innovatsiyalar, zamonaviy texnologiyalar va raqamli geologik ma‘lumotlar tizimini joriy etish jarayonlari tahlil qilingan. Maqolada Hisor ekspeditsiyasining mineral-xom ashyo bazasini boyitish, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shish va ilmiy salohiyatni oshirishdagi rolga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Hisor ekspeditsiyasi, geologiya-qidiruv ishlari, mustaqillik yillari, mineral-xom ashyo, foydali qazilmalar, geologik tadqiqotlar, ilmiy innovatsiyalar, iqtisodiy rivojlanish, tabiiy resurslar.

Annotation. This article scientifically analyzes the history of the activities of the Hisor Central geological exploration expedition in the years of independence and its role in the development of the geological sphere of Uzbekistan. The study highlights the historical stages of formation of the expedition, the main areas of research and the scientific importance in determining the deposits of minerals. It also analyzed the processes of structural reforms, scientific innovations, modern technologies and the introduction of a digital geological data system carried out in the field of geology in the post-independence period. The article pays special attention to the role of the Hisor expedition in enriching the mineral-raw material base, contributing to regional economic development and increasing scientific potential.

Keywords. Hisor expedition, geology-exploration work, years of independence, mineral-raw materials, minerals, geological research, scientific innovation, economic development, Natural Resources.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va mineral-xomashyo bazasini kengaytirish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Bu davrda mamlakat tabiiy boyliklar salohiyatini yanada chuqur o‘rganish, yangi foydali qazilmalar konlarini aniqlash hamda ularni ilmiy asosda o‘zlashtirish dolzarb masalaga aylandi. Shu maqsadda geologiya sohasida tub islohotlar amalga oshirilib, qidiruv va razvedka ishlarini takomillashtirish, zamonaviy ilmiy-texnik

yondashuvlarni tatbiq etish va geologik ma'lumotlar tizimini raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mazkur jarayonlarda O'zbekiston geologiya sohasining tarixida o'zining mustahkam o'rni va boy tajribasiga ega bo'lgan ilmiy muassasalardan biri — Hisor markaziy geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi faoliyati alohida o'rin tutadi. Mazkur ekspeditsiya ilgari sobiq Ittifoq davrida ham muhim ilmiy markazlardan biri sifatida faoliyat yuritgan bo'lib, mustaqillik yillarida uning ish samaradorligi yanada oshdi. Shuningdek, mazkur davrda ekspeditsiya faoliyati mazmun va ish ko'lam jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi.

Hisor markaziy geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi mamlakatning janubiy hududlarida joylashgan turli mineral resurslarni o'rganish, yangi konlarni aniqlash va ularni iqtisodiy aylanmaga kiritishda katta ahamiyat kasb etdi. Ekspeditsiya faoliyati nafaqat geologik izlanishlarni amalga oshirish bilan cheklanib qolmay, balki ilmiy-tadqiqot ishlari asosida mintaqaning sanoat salohiyatini rivojlantirish, yangi ishlab chiqarish bazalarini tashkil etish va tabiiy resurslardan barqaror foydalanish strategiyasini ishlab chiqishda ham muhim ilmiy-amaliy markaz vazifasini bajarib kelmoqda. Shuningdek, ekspeditsiya tarkibidagi mutaxassislar zamonaviy geofizik va geoximik tadqiqot usullarini amaliyotga tatbiq etib, mamlakatning geologik xaritasini yangilash, mineral zaxiralarni qayta baholash va istiqbolli hududlarni aniqlash ishlarini izchil davom ettirmoqda. Bu faoliyat nafaqat iqtisodiy, balki tarixiy jihatdan ham O'zbekistonning ilmiy mustaqilligi va tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish tamoyillarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Hisor markaziy geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi 1952-yilda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrida faoliyat yuritib kelmoqda. Muassasa asosan Qashqadaryo va Surxondaryo hududlaridagi tog'li massivlarni o'rganishga yo'naltirilgan. Sovet davrida ekspeditsiya faoliyati asosan xomashyo manbalarini aniqlash va geologik xaritalash ishlarini amalga oshirib keldi. Mustaqillikdan so'ng esa ekspeditsiya faoliyati tubdan yangilandi. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ilmiy izlanishlar strategiyasi ishlab chiqildi, mahalliy kadrlar salohiyati mustahkamlandi va geologiya sohasida milliy ilmiy maktab shakllandi. Ekspeditsiya mustaqillik yillarida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida bir qator yangi konlar — jumladan, Aqba oltin konini aniqladi. Tadqiqotlar natijasida 13 tonnadan ortiq oltin zaxirasi davlat balansidan joy oldi. Shuningdek, volfram, grafit, ruh va kaliy tuzlarini izlash ishlari amalga oshirdi. Geofizik tadqiqotlar, burg'ilash va tahlil ishlarida raqamli uskunalar va kompyuter modellashtirish usullari qo'llanilmoqda. Bu esa ma'lumotlarning aniqligini va geologik baholash samaradorligini oshirdi.

Mustaqillik yillarida ekspeditsiya "O'zgeo" davlat aksiyadorlik jamiyati tarkibida faoliyat yuritib, respublika va xorijiy ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda loyihalarni amalga oshirmoqda. Har yili 20–25 ta ilmiy-loyiha doirasida geologik izlanishlar olib borilmoqda. Ularning natijalari respublika ilmiy anjumanlarida va "Geologiya va mineral resurslar" jurnalida e'lon qilinib kelmoqda. Geofizik tadqiqotlar, burg'ilash va spektral tahlil ishlari yangi uskunalar yordamida olib borilib, ma'lumotlarning aniqligi va sifat ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshdi. Yosh mutaxassislarni tayyorlash, tajribali

geologlar ilmiy maktabini tiklash hamda geologik hujjatlar arxivini raqamlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Hisor markaziy geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi nafaqat ilmiy tadqiqot markazi, balki O'zbekistonning geologiya sohasidagi tarixiy izlanishlar merosini saqlab kelayotgan muassasa hisoblanadi. Hisor ekspeditsiyasi faoliyati nafaqat ilmiy, balki iqtisodiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Yangi konlarning kashf etilishi sanoat salohiyatini oshirib, ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash borasida ham keng tadbirlar amalga oshirilmoqda. Uning faoliyati natijasida mamlakatning janubiy hududlaridagi kon-qazilma salohiyati ilmiy jihatdan asoslangan holda baholandi. Ekspeditsiyaning faoliyati nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki mintaqadagi ijtimoiy infratuzilmani yaxshilashga ham xizmat qildi. Yangi ish o'rinlari yaratildi, mahalliy aholi o'rtasida geologik madaniyat va ekologik ong oshdi.

Xullas, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin geologiya qidiruv ishlariga alohida e'tibor qaratdi. Hisor markaziy geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi faoliyati mazmun va ko'lam jihatidan tubdan yangilandi hamda zamonaviy ilmiy-amaliy yo'nalishga ega markaz sifatida shakllandi. Ekspeditsiya nafaqat geologik qidiruv va razvedka ishlarini olib boruvchi tuzilma, balki ilmiy-innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etuvchi ilmiy markaz darajasiga ko'tarildi. Uning faoliyati O'zbekistonning mineral-xom ashyo bazasini mustahkamlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish hamda milliy geologiya fanining ilmiy salohiyatini oshirishga sezilarli hissa qo'shdi. Hisor ekspeditsiyasining tajribasi, ilmiy natijalari va amaliy ishlanmalari bugungi kunda ham mamlakatning foydali qazilmalar sohasida olib borilayotgan izlanishlar uchun muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Геология ва минерал ресурслар вазирлиги расмий сайти — uzgeo.uz
2. Ўзбекистон миллий ахборот агентлиги — uza.uz
3. “Hisor geologiya ekspeditsiyasi faoliyati bilan tanishildi” — *Xalq so'zi*, 2025 yil 15 iyun.
4. “Геология ва минерал ресурслар” журнали, 2023 йил, №2.
5. Нисор марказий геология-қидирув экспедитцияси архив хужжатлари (1950–1990-йиллар).
6. Моисеев В. И. Геология Южного Таджикистана и Гиссарской горной области. — Москва, 1974.
7. Ўзбекистон геологик изланишлари тўплами. — Тошкент. “Фан”, 1987.
8. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон геологияси: Илмий мақолалар тўплами. — Тошкент, 2019.